

XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



Ish haqi. 2021-yil yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyati shahar, tumanlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tahlili qo‘yidagilarni ko‘rsatmoqda. Viloyatda o‘rtacha oylik ish haqi 4 055,3 ming so‘mni tashkil etgan holda, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Uchquduq tumanida 6 435,0 ming so‘mni (viloyatning o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan

158,7 foiz), Zarafshon shahrida 5 983,6 ming so‘mni (147,6 foiz), Navoiy shahrida 4 156,9 ming so‘mni (102,5 foiz), tashkil etgan bo‘lsa, Qiziltepa tumanida 1 953,2 ming so‘mni (48,2 foiz), Xatirchi tumanida 1 993,8 ming so‘mni (49,2 foiz), Navbahor tumanida 2 031,3 ming so‘mni (50,1 foiz), G‘ozg‘on shahrida 2 316,6 ming so‘mni (57,1 foiz), Nurota tumanida 2 102,2 ming so‘mni (51,8 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi* (ming so‘mda)


	2020-yil	2021-yil	O‘sish sur‘ati, % da
Jami	3 501,1	4 055,3	115,8
Navoiy sh.	3 716,1	4 156,9	111,9
Zarafshon sh.	5 038,0	5 983,6	118,8
G‘ozg‘on sh.	1 883,3	2 316,6	123,0
Karmana t.	2 680,8	3 247,0	121,1
Konimex t.	1 912,2	4 235,3	221,5
Qiziltepa t.	1 660,6	1 953,2	117,6
Navbahor t.	1 841,0	2 031,3	110,3
Nurota t.	1 739,3	2 102,2	120,9
Tomdi t.	2 118,2	2 505,6	118,3
Uchquduq t.	5 262,3	6 435,0	122,3
Xatirchi t.	1 749,8	1 993,8	113,9

*)Qayta hisoblangan, kichik tadbirkorlik va qishloq xo‘jaligi korxonalarisiz.

2021-yil yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 115,8 foizni tashkil etib, o‘rtacha oylik ish

haqining eng yuqori surʼatlari Konimex tumani 221,5 foiz, Uchquduq tumani 122,3 foiz, Zarafshon shaxri 118,8 foiz, Navoiy shahri 111,9 foiz Karmana tumani 121,1 foiz, Nurota tumani 120,9 foiz, Tomdi tumani 118,3 foiz, Xatirchi tumanida 113,9 foiz, Navbahor tumani 110,3 foiz, Qiziltepa tumanida 117,6 foiz va Gʻozgʻon shahrida 123,0 foizga oʻsgani kuzatildi.

Hududlar boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2020-yil yanvar-dekabrga nisbatan, % da)



Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(qishloq hoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subʼektlaridan tashqari)

	Yanvar-dekabr		Viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da	
	2020-yil	2021-yil	2020-yil	2021-yil
Jami viloyat boʻyicha:	3 501,1	4 055,3	x	x
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	4 902,6	5 936,3	140,0	146,4
Qurilish	4 171,3	4 803,0	119,1	118,4
Savdo	2 639,9	2 293,3	75,4	56,6
Tashish va saqlash	2 264,3	2 931,6	64,7	72,3
Axborot va aloqa	2 538,8	3 094,7	72,5	76,3

	<i>Yanvar-dekabr</i>		<i>Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da</i>	
	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	5 735,0	7 416,5	163,8	182,9
Ta'lim	1 939,2	2 268,1	55,4	55,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 801,0	2 092,3	51,4	51,6
Boshqa faoliyat turlari	2 612,5	2 876,9	74,6	70,9

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari moliya va sug'urta faoliyatida (182,9 foiz), Sanoatda (146,4 foiz), Qurilishda (118,4 foiz), Axborot va aloqada (76,3 foiz), Tashish va saqlash (72,3 foiz), Savdoda (56,6 foiz), Ta'limda (55,9 foiz), Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (51,6 foiz) va boshqa (70,9 foiz) sohalar hissasiga to'g'ri keldi.

Sanoat sohasida 29 ta korxonada 70 038 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 42,2 foizni) xodim ishlagan bo'lib, Sanoat sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5 936,3 ming so'mni;

Ta'lim sohasida 681 ta korxonada 42 872 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 25,9 foizni) xodim ishlagan bo'lib, Ta'lim sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 268,1 ming so'mni;

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 48 ta korxonada 17 179 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 10,4 foizni) xodim ishlagan bo'lib, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 092,3 ming so'mni;

Savdo sohasida 13 ta korxonada 1 221 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan 0,7 foizni), xodim ishlagan bo'lib, Savdo sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haq 2 293,3 ming so'mni;

Qurilish sohasida 11 ta korxonada 4 557 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,7 foizni) xodim ishlagan bo'lib, Qurilish sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 803,0 ming so'mni;

Axborot va aloqa sohasida 6 ta korxonada 684 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,4 foizni) xodim ishlagan bo'lib, Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 094,7 ming so'mni;

Tashish va saqlash sohasida 8 ta korxonada 1 836 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,1 foizni) xodim ishlagan bo‘lib, Tashish va saqlash sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 931,6 ming so‘mni;

Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida 40 ta korxonada 1 922 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,2 foizni) xodim ishlagan bo‘lib, Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 416,5 ming so‘mni;

Boshqa faoliyat turlari sohasida 358 ta korxonada 25 464 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 15,4 foizni) xodim ishlagan bo‘lib, Boshqa faoliyat turlari sohasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 876,9 ming so‘mni tashkil etdi.